

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI****METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT ACTIVITIES IN SMALL BUSINESS ENTITIES****¹Butayev Javlonbek
Inatillo o'g'li****¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi, PhD.
ORCID: 0000-0003-2745-817X, G-mail: butayevjavlon@gmail.com****Annotatsiya
Abstract**

Uzb. - Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning metodologik yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy natijadorlik bilan bir qatorda iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va risk omillarini kompleks hisobga olish zarurligi asoslangan. Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning investitsiya samaradorligi, kapital qiymati, risk, daromadlilik va raqobatbardoshlik haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi tajribalari qiyosiy o'rganilib, O'zbekiston amaliyoti uchun mos metodologik va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines methodological approaches to assessing the efficiency of investment activities in small business entities. The study substantiates the need to comprehensively consider not only financial performance, but also economic, social, innovative, and risk-related factors when evaluating investment projects. The article analyzes the scientific views of domestic and foreign scholars on investment efficiency, cost of capital, risk, profitability, and competitiveness. In addition, the experiences of the United States, Germany, South Korea, Japan, and the European Union are comparatively studied, and relevant methodological and practical recommendations suitable for the practice of Uzbekistan are developed.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ *kichik biznes, investitsiya faoliyati, investitsion samaradorlik, baholash mezonlari, metodologik yondashuv, risk, rentabellik, xalqaro tajriba.*

❖ *small business, investment activity, investment efficiency, evaluation criteria, methodological approach, risk, profitability, international experience.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va aholining daromad manbalarini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi

shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan ularning investitsiya resurslaridan samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq. Investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish, eksport salohiyatini

kuchaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda kichik biznes investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli mexanizmlar shakllangan. Masalan, AQShda kichik biznesni moliyalashtirishda kredit kafolatlari, venchur kapital va startup fondlari muhim ahamiyatga ega. Germaniyada rivojlanish banklari orqali uzoq muddatli imtiyozli kreditlar va texnologik modernizatsiya dasturlari keng qo'llaniladi. Janubiy Koreyada kichik biznesni innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalar orqali qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa kichik biznes investitsiyalari "yashil iqtisodiyot", raqamlashtirish va barqaror rivojlanish mezonlari bilan bog'langan holda baholanadi [8].

O'zbekiston sharoitida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish va hududlarda biznes muhitini yaxshilash bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlashga oid qarorlar tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qilmoqda [11].

Shunga qaramay, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholash amaliyotida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Ko'plab hollarda investitsiya loyihalari faqat foyda, xarajat va qoplash muddati kabi tor moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bunday yondashuv esa loyiha uchun uzoq muddatli iqtisodiy natijasi, risk darajasi, innovatsion ta'siri, bandlikka qo'shadigan hissasi va hududiy rivojlanishdagi rolini to'liq aniqlash imkonini bermaydi.

Shu bois kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashda kompleks metodologik yondashuvni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning mavjud yondashuvlarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni qiyosiy o'rganish hamda O'zbekiston amaliyoti uchun samarali takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholash masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan D.G'. G'ozibekov investitsiyalarni moliyalashtirish masalalarini tadqiq etib, investitsiya jarayonida moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, kapital qiymatini to'g'ri aniqlash va investitsion risklarni kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, investitsiya samaradorligini baholashda faqat yakuniy foyda emas, balki moliyalashtirish manbalari barqarorligi, kapitalning qaytish muddati va tavakkalchilik darajasi ham hisobga olinishi lozim [1].

N.G'. Karimov investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini o'rganar ekan, investitsion qarorlar iqtisodiy asoslangan, moliyaviy jihatdan barqaror va uzoq muddatli natijaga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini qayd etadi. Muallifning qarashlariga ko'ra, investitsiya loyihalarini baholashda pul oqimlari, rentabellik, qoplash muddati va bozor sharoitlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinishi zarur [2].

H.H. Imomov investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish jarayonida loyiha samaradorligini aniqlash, investitsion resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida investitsiya samaradorligi

korxonalar moliyaviy barqarorligi va ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi [3].

A.V. Vahobov va T.S. Malikov moliyaviy boshqaruv jarayonida kapital resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va korxonalar faoliyatida moliyaviy qarorlarning asoslangan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Ularning yondashuvi kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyatini baholashda moliyaviy resurslar tarkibi, rentabellik, likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi [4].

Xorijiy olimlardan R.A. Brealey, S.C. Myers va F. Allen investitsiya loyihalarini baholashda sof joriy qiymat, ichki rentabellik me'yori, kapital qiymati va diskontlangan pul oqimlari usullarini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Ularning yondashuvi investitsion qarorlarning moliyaviy jihatdan asoslanganligini aniqlashda muhim metodologik baza hisoblanadi [5].

W.F. Sharpe, G.J. Alexander va J.V. Bailey investitsiya qarorlarida risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. Ularning fikricha, investitsiyaning kutilayotgan daromadi har doim unga xos risk darajasi bilan birgalikda baholanishi kerak. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari uchun ayniqsa muhim, chunki ular bozor o'zgarishlari va moliyaviy cheklovlarga nisbatan sezgir hisoblanadi [6].

M.E. Porter korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalarning strategik rolini asoslaydi. Uning qarashlariga ko'ra, investitsiyalar faqat joriy foydani oshirish vositasi emas, balki korxonaning bozordagi ustunligini mustahkamlash, mahsulot sifatini yaxshilash, innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish va qiymat zanjirini rivojlantirish vositasidir [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanish

yetarli emas. Samaradorlikni to'g'ri aniqlash uchun moliyaviy natija, risk, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy ta'sir, raqobatbardoshlik va institutsional qo'llab-quvvatlash omillarini birgalikda baholash zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Investitsiya faoliyati samaradorligi moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va risk mezonlari asosida o'rganildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda kichik biznes investitsiya faoliyatiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda investitsiya samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimlashtirildi. Uchinchi bosqichda xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston amaliyoti uchun takomillashtirilgan metodologik yondashuv va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholash ko'p mezonli yondashuvni talab etadi. Chunki kichik biznes korxonalar yirik korxonalardan farqli ravishda moliyaviy resurslar cheklanganligi, kredit olishdagi murakkabliklar, bozor risklarining yuqoriligi va boshqaruv tajribasining yetarli emasligi bilan ajralib turadi. Shu sababli investitsiya qarorlarining samaradorligini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki likvidlik, rentabellik, risk darajasi va pul oqimlarining barqarorligi kabi kompleks indikatorlar orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy qiymatini aniqlashda tashqi omillar – bozor kon'yunkturasi, raqobat muhiti va davlat qo'llab-quvvatlash siyosati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Kichik biznes subyektlarida investitsiya samaradorligini baholash mezonlari tizimi*

Baholash mezonlari	Mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar
Moliyaviy samaradorlik	Investitsiyaning foyda keltirish darajasini aniqlaydi	Sof joriy qiymat, ichki rentabellik me'yori, qoplash muddati, rentabellik
Iqtisodiy samaradorlik	Ishlab chiqarish va daromad o'sishini ifodalaydi	Mahsulot hajmi, tannarx, foyda, mehnat unumdorligi
Ijtimoiy samaradorlik	Loyihaning bandlik va hududiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatadi	Yangi ish o'rinlari, soliq tushumi, aholining daromad manbalari
Innovatsion samaradorlik	Yangi texnologiya va mahsulot yaratish imkoniyatini baholaydi	Raqamlashtirish, yangi mahsulot, texnologik yangilanish
Risk darajasi	Loyihaning noaniqlik va tavakkalchilik darajasini aniqlaydi	Bozor riski, kredit riski, likvidlik riski, texnologik risk
Raqobatbardoshlik	Korxonaning bozordagi mavqeyini mustahkamlash darajasini ko'rsatadi	Bozor ulushi, eksport salohiyati, mahsulot sifati

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda kichik biznes subyektlarida investitsiya samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan asosiy mezonlar tizimlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy natija orqali baholash yetarli emas. Moliyaviy samaradorlik investitsiyaning foyda keltirish imkoniyatini aniqlasa, iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish hajmi, tannarx va mehnat unumdorligidagi o'zgarishlarni baholaydi. Ijtimoiy samaradorlik esa investitsiya loyahasining yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatadi.

Mazkur jadvalning muhim jihati shundaki, unda kichik biznes uchun dolzarb

bo'lgan risk va raqobatbardoshlik mezonlari ham alohida ajratilgan. Chunki kichik biznes subyektlari bozor tebranishlari, kredit shartlari, xomashyo narxlari va talab o'zgarishlariga juda sezgir bo'ladi. Shu sababli investitsiya loyahasini baholashda risk omilini oldindan aniqlash korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash imkonini beradi. Raqobatbardoshlik mezonlari esa investitsiyaning uzoq muddatli natijasini, ya'ni korxonaning bozordagi mavqeyini mustahkamlash imkoniyatini baholashga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya samaradorligini baholash uchun quyidagi kompleks mexanizm taklif etiladi.



1-rasm. Kichik biznes subyektlarida investitsiya samaradorligini kompleks baholash mexanizmi¹

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

1-rasmda kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich baholash mexanizmi aks ettirilgan. Ushbu mexanizmning birinchi bosqichida investitsiya loyihasining moliyaviy jihatlari baholanadi. Bunda sof joriy qiymat, ichki rentabellik me'ori, rentabellik darajasi va qoplash muddati kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar korxonaga investitsiya mablag'larining qanchalik tez va qanday darajada foyda keltirishini baholash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda risklarni baholash amalga oshiriladi. Kichik biznesda risklarni hisobga olmasdan qabul qilingan investitsion qaror loyiha muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin. Masalan, bozor talabining kamayishi, kredit foiz stavkalarining oshishi yoki xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar loyiha daromadlilikini pasaytiradi. Shu sababli

risklarni oldindan baholash investitsiya qarorining ishonchlilikini oshiradi.

Uchinchi bosqichda loyiha iqtisodiy va ijtimoiy natijalar nuqtayi nazaridan baholanadi. Bunda ishlab chiqarish hajmining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va soliq tushumlarining ortishi kabi omillar hisobga olinadi. To'rtinchi bosqichda innovatsion samaradorlik baholanadi. Bu esa loyiha orqali yangi texnologiyalar, raqamli yechimlar yoki yangi mahsulot turlarini joriy etish imkoniyatini aniqlashga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda esa loyiha qabul qilinadi, qayta ishlashga yuboriladi yoki rad etiladi.

Investitsiya samaradorligini oshirishda risklarni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Kichik biznesda risklar ko'pincha moliyaviy barqarorlikning pastligi, bozor narxlarining o'zgarishi, kredit foiz stavkalari, xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar va talabning pasayishi bilan bog'liq bo'ladi.



2-rasm. Investitsion qaror qabul qilishda risklarni kamaytirish mexanizmi²

2-rasmda investitsion qaror qabul qilishda risklarni kamaytirish mexanizmi ko'rsatilgan. Mazkur mexanizm risklarni aniqlashdan boshlanadi. Kichik biznes subyekti

investitsiya loyihasini amalga oshirishdan oldin moliyaviy, bozor, texnologik va huquqiy risklarni aniqlashi lozim. Masalan, moliyaviy risk kredit mablag'larini qaytarish imkoniyati

²Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

bilan, bozor riski mahsulotga bo'lgan talabning o'zgarishi bilan, texnologik risk esa uskunalar va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi bilan bog'liq.

Keyingi bosqichda risk darajasi baholanadi va risklar guruhlariga ajratiladi. Bu jarayon korxonaga qaysi risklar eng xavfli ekanligini aniqlash imkonini beradi. Shundan so'ng risklarni kamaytirish choralari belgilanadi. Sug'urta, kredit kafolati, mahsulot yoki bozorni diversifikatsiya qilish, zaxira fond shakllantirish kabi vositalar kichik biznes subyektlari uchun muhim himoya mexanizmlari hisoblanadi.

Rasmda monitoring va nazorat bosqichining alohida ko'rsatilgani muhim ahamiyatga ega. Chunki investitsiya loyihasi bir marta baholanib, keyin nazoratsiz qoldirilsa, uning samaradorligi pasayishi mumkin. Doimiy monitoring esa loyiha natijalarini kuzatish, muammolarni erta aniqlash va zarur hollarda investitsiya strategiyasini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Kichik biznes investitsion samaradorligini oshirishda moliyaviy, institutsional, innovatsion, soliq-rag'bat va monitoring mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi muhim hisoblanadi.



3-rasm. Kichik biznes investitsion samaradorligini oshirish mexanizmlari³

3-rasmda kichik biznes investitsion samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlar tizimi aks ettirilgan. Moliyaviy mexanizm kichik biznes subyektlariga investitsiya resurslariga kirish imkoniyatini yaratadi. Imtiyozli kredit, grant,

kafolat va lizing vositalari kichik biznes uchun ayniqsa muhim, chunki ular ko'pincha yetarli garov ta'minoti yoki katta miqdordagi o'z mablag'lariga ega bo'lmaydi.

Institutsional mexanizm esa biznes inkubatorlar, konsalting xizmatlari va loyiha

³Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

ofislari orqali tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Bu mexanizm kichik biznes vakillarining biznes-reja tuzish, investitsiya samaradorligini hisoblash, kredit hujjatlarini tayyorlash va bozor tahlilini amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.

Innovatsion mexanizm kichik biznesning zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlardan foydalanishini rag'batlantiradi. Raqamli texnologiyalar, startaplar va texnoparklar orqali kichik biznesda yangi

mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin. Soliq-rag'bat mexanizmi esa investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytiradi. Monitoring mexanizmi orqali esa investitsiya loyihalarining natijadorligi muntazam baholanadi va samaradorlik ko'rsatkichlari nazorat qilinadi.

2-jadval

Kichik biznes investitsiya samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili* [8; 9; 10]

Mamlakat / hudud	Asosiy yondashuv	Qo'llaniladigan mexanizm	Investitsion samaradorlikka ta'siri	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyati
AQSh	Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Kredit kafolatlari, ventur kapital, startap fondlari	Innovatsion loyihalar va yangi bizneslarni moliyalashtirish kengayadi	Davlat kafolatli ventur fondlari va startap moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish mumkin
Germaniya	Rivojlanish banklari orqali uzoq muddatli moliyalashtirish	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, modernizatsiya dasturlari	Ishlab chiqarish quvvati, texnologik yangilanish va eksport salohiyati oshadi	Hududiy rivojlanish banklari orqali kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish mumkin
Janubiy Koreya	Innovatsion va eksportga yo'naltirilgan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash	Texnoparklar, startap akseleratorlari, eksport grantlari	Yuqori texnologik kichik biznes rivojlanadi	IT, agrotexnologiya va qayta ishlash sohalarida texnoparklar faoliyatini kuchaytirish mumkin
Yaponiya	Kichik biznesni yirik ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish	Klasterlash, kooperatsiya, biznes maslahat markazlari	Kichik korxonalar yirik sanoat korxonalar bilan barqaror hamkorlik qiladi	Mahalliy kichik biznesni yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida bog'lash mumkin
Yevropa Ittifoqi	Raqamli va yashil investitsiyalarni rag'batlantirish	Grantlar, yashil kreditlar, ESG mezonlari	Energiya tejamkor va ekologik barqaror biznes loyihalari rivojlanadi	Energiya tejamkor uskunalar uchun "yashil kredit" mexanizmini kengaytirish mumkin

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

2-jadvalda qayd etilganidek kichik biznes investitsiya samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. Jadvaldan ko'rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni investitsion qo'llab-quvvatlash faqat kredit ajratish bilan cheklanmaydi. Har bir mamlakat o'z iqtisodiy rivojlanish modeli, moliyaviy infratuzilmasi va innovatsion siyosatidan kelib chiqib, kichik

biznesni qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqqan.

AQSh tajribasida kichik biznesni moliyalashtirishda ventur kapital va startap fondlari muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv yangi texnologiyalar, innovatsion mahsulotlar va yuqori o'sish salohiyatiga ega loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida ham startap va innovatsion kichik

biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat kafolatli venchur moliyalashtirish tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Germaniya tajribasi kichik biznesni uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirishga asoslangan. Rivojlanish banklari, imtiyozli kreditlar va modernizatsiya dasturlari ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki hududlarda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli va past foizli kreditlarga ehtiyoj yuqori.

Janubiy Koreya tajribasida texnoparklar, startap akseleratorlari va eksport grantlari orqali kichik biznesning innovatsion salohiyati kuchaytiriladi. Bu model O'zbekistonda IT, agrotexnologiya, oziq-ovqat sanoati va qayta ishlash sohalarida kichik biznesni rivojlantirish uchun qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, texnoparklar va universitetlar bilan

hamkorlikdagi biznes inkubatorlar kichik biznesning innovatsion loyihalarini bozorga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Yaponiya tajribasida kichik biznes yirik ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilinadi. Bunda kichik korxonalar yirik kompaniyalarga ehtiyot qismlar, xizmatlar yoki texnologik yechimlar yetkazib beruvchi hamkor sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekiston amaliyotida bu yondashuvni avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda qo'llash mumkin.

Yevropa Ittifoqi tajribasi esa kichik biznes investitsiyalarini yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish bilan bog'laydi. Yashil kreditlar, grantlar va ESG mezonlari kichik biznesni energiya tejamkor, ekologik xavfsiz va innovatsion faoliyatga yo'naltiradi. O'zbekiston sharoitida quyosh energiyasi, suv tejovchi texnologiyalar va energiya samarador uskunalar uchun maxsus "yashil investitsiya" dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

3-jadval

Kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashning takomillashtirilgan metodologik modeli*

Baholash bosqichi	Baholash mazmuni	Amaliy qo'llash natijasi
Dastlabki saralash	Loyiha maqsadi, qiymati, sohasi va moliyalashtirish manbasi aniqlanadi	Samarasiz yoki noaniq loyihalar dastlabki bosqichdayoq ajratib olinadi
Moliyaviy tahlil	Qoplash muddati, rentabellik, sof joriy qiymat va pul oqimlari hisoblanadi	Loyiha moliyaviy jihatdan qanchalik foydali ekani aniqlanadi
Risk tahlili	Bozor, kredit, texnologik va huquqiy risklar baholanadi	Tavakkalchilik darajasi aniqlanib, oldini olish choralari belgilanadi
Ijtimoiy-iqtisodiy baholash	Bandlik, soliq tushumi, hududiy rivojlanishga ta'sir o'rganiladi	Loyiha korxonalar bilan birga jamiyat uchun ham foydali yoki foydasiz ekani aniqlanadi
Innovatsion baholash	Raqamlashtirish, texnologik yangilanish va yangi mahsulot yaratish imkoniyati baholanadi	Loyiha uzoq muddatli raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan baholanadi
Yakuniy qaror	Barcha ko'rsatkichlar umumlashtiriladi	Loyiha qabul qilinadi, qayta ishlanadi yoki rad etiladi

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqorida aks ettirilgan 3-jadvalda kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashning takomillashtirilgan metodologik modeli taklif etilgan. Ushbu modelning afzalligi shundaki, u investitsiya loyahasini bir martalik moliyaviy hisob-kitob sifatida emas, balki

bosqichma-bosqich baholash jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Dastlabki saralash bosqichida loyiha maqsadi, qiymati, sohasi va moliyalashtirish manbasi aniqlanadi. Bu bosqich samarasiz, noaniq yoki yetarlicha

asoslanmagan loyihalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Moliyaviy tahlil bosqichi investitsiya loyihasining foydalilik darajasini aniqlash uchun zarur. Bunda qoplash muddati, rentabellik, sof joriy qiymat va pul oqimlari hisoblanadi. Biroq kichik biznes amaliyotida faqat moliyaviy tahlil bilan cheklanib qolish noto'g'ri bo'ladi. Shu sababli modelga risk tahlili, ijtimoiy-iqtisodiy baholash va innovatsion baholash bosqichlari ham kiritilgan.

Risk tahlili korxonaga kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy baholash esa investitsiya loyihasining bandlik, soliq tushumi va hududiy rivojlanishga ta'sirini aniqlaydi. Innovatsion baholash loyihaning texnologik yangilanish, raqamlashtirish va yangi mahsulot yaratish imkoniyatlarini baholaydi. Yakuniy qaror bosqichida barcha ko'rsatkichlar umumlashtirilib, loyiha qabul qilinadi, qayta ishlashga yuboriladi yoki rad etiladi.

Mazkur metodologik model kichik biznes subyektlari uchun amaliy jihatdan qulay bo'lishi bilan ajralib turadi. Chunki u murakkab nazariy hisob-kitoblardan tashqari, tadbirkor uchun tushunarli bo'lgan mezonlarga ham asoslanadi. Bu esa investitsion qarorlarning sifatini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning asosiy muammolaridan biri baholash jarayonining yetarlicha tizimli emasligidir. Amaliyotda ko'plab kichik biznes vakillari investitsion qarorlarni kutilayotgan foyda yoki xarajatlarning tez qoplanishiga qarab qabul qiladi. Biroq bunday yondashuv investitsiya loyihasining uzoq muddatli ta'siri, risk darajasi va strategik rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ochib bera olmaydi.

Yuqoridagi rasm va jadvallar tahlili kichik biznes investitsiya faoliyatini baholashda uchta muhim jihatni ko'rsatadi. Birinchidan,

baholash jarayoni kompleks bo'lishi kerak. Ya'ni, loyiha nafaqat foyda va xarajat asosida, balki risk, ijtimoiy ta'sir, innovatsionlik va raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinishi lozim. Ikkinchidan, baholash bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv samarasiz loyihalarni erta aniqlash va resurslarni tejash imkonini beradi. Uchinchidan, baholash natijasi amaliy qaror qabul qilishga xizmat qilishi kerak. Ya'ni, loyiha qabul qilinadimi, qayta ishlanadimi yoki rad etiladimi – bu aniq mezonlar asosida belgilanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes investitsiyalarini samarali boshqarish uchun davlat, banklar, xususiy investorlar, biznes inkubatorlar, rivojlanish institutlari va konsalting tashkilotlari o'rtasida uzviy hamkorlik bo'lishi zarur. Ayniqsa, kredit kafolati, venchur moliyalashtirish, raqamli reyting, startap akseleratsiyasi, yashil kreditlash va investitsion monitoring tizimlari kichik biznesning investitsion faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [8; 10].

O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlari uchun investitsiya samaradorligini baholash metodologiyasi sodda, tushunarli va amaliy jihatdan qo'llashga qulay bo'lishi kerak. Chunki kichik biznes vakillarining aksariyati murakkab moliyaviy modellarni mustaqil qo'llash imkoniyatiga ega emas. Shu sababli investitsiya loyihalarini baholashda "minimal ko'rsatkichlar paketi"ni joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda har bir loyiha bo'yicha qoplash muddati, rentabellik, pul oqimi, risk darajasi, yangi ish o'rinlari, innovatsion ta'sir va soliq tushumiga ta'sir majburiy baholanishi kerak.

Shuningdek, investitsiya samaradorligini baholashda tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan, savdo sohasida investitsiyalar nisbatan tez qoplanishi mumkin, biroq ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarida qoplash muddati uzoqroq bo'lsa-da, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik yuqori bo'lishi mumkin. Demak, baholash

metodologiyasi barcha kichik biznes subyektlari uchun yagona qolipda emas, balki soha va hudud xususiyatlariga moslashgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholash ko'p omilli jarayon bo'lib, u faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmasligi kerak. Investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlash uchun moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va risk omillarini kompleks hisobga oluvchi metodologik yondashuv zarur hisoblanadi.

O'zbekiston amaliyotida kichik biznes investitsion samaradorligini oshirish uchun quyidagi, hozircha keng qo'llanmayotgan, lekin yuqori samara berishi mumkin bo'lgan takliflar ilgari suriladi:

1. Kichik biznes investitsiya loyihalarini uchun raqamli baholash platformasini yaratish. Ushbu platformada tadbirkor loyiha qiymati, kutilayotgan daromad, xarajatlar, kredit miqdori va risk omillarini kiritadi. Tizim avtomatik tarzda qoplash muddati, rentabellik, pul oqimi va risk darajasini hisoblab beradi. Bu investitsion qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi va subyektiv xatolarni kamaytiradi.

2. "Kichik investitsiya reytingi" tizimini joriy etish. Kichik biznes subyektlari moliyaviy holati, soliq intizomi, faoliyat tarixi, ish o'rinlari yaratish salohiyati va loyiha samaradorligi asosida reytinglanishi lozim. Yuqori reytingga ega tadbirkorlar imtiyozli

kredit, davlat kafolati va grant olishda ustuvorlikka ega bo'lishi mumkin.

3. Hududiy investitsiya loyiha ofislarini tashkil etish. Har bir hududda kichik biznesga biznes-reja tuzish, investitsiya samaradorligini hisoblash, kredit va grant hujjatlarini tayyorlashda ko'mak beruvchi loyiha ofislari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu kichik biznes subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshiradi va sifatli investitsiya loyihalari sonini ko'paytiradi.

4. Kichik biznes uchun "yashil investitsiya" kredit liniyalarini kengaytirish. Energiya tejankor uskunalari, quyosh panellari, chiqindisiz texnologiyalar va suv tejovchi qurilmalar xaridiga past foizli kreditlar ajratilishi kerak. Bu korxonalar xarajatlarini kamaytiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va uzoq muddatli samaradorlikni oshiradi.

5. Investitsiya loyihalarini natijaga bog'langan rag'batlantirish tizimini joriy etish. Agar kichik biznes investitsiya loyihasi orqali yangi ish o'rinlari yaratilsa, eksport hajmini oshirsa, mahalliy xomashyoni qayta ishlansa yoki innovatsion mahsulot ishlab chiqarsa, unga soliq chegirmasi, foiz kompensatsiyasi yoki qo'shimcha grant berish mexanizmi qo'llanishi mumkin.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning metodologik yondashuvlarini takomillashtirish investitsion resurslardan oqilona foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, innovatsion faollikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ozibekov D.G'. *Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2003.*

2. Karimov N.G'. *Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007.*

3. Imomov H.H. *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 188 b.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. *Moliya. Darslik.* – Toshkent: Noshir, 2011. – 712 b.
5. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. *Principles of Corporate Finance.* 14th ed. – New York: McGraw Hill, 2023. ISBN: 9781265074159.
6. Sharpe W.F., Alexander G.J., Bailey J.V. *Investments.* 6th ed. – Upper Saddle River, New Jersey: Prentice Hall, 1999. – 962 p.
7. Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
8. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs 2025: An OECD Scoreboard – Highlights.* – Paris: OECD Publishing, 2025.
9. World Bank Group. *SME Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions.* – Washington, DC: World Bank Group.
10. International Finance Corporation. *IFC to Help Financial Institutions Support Small Businesses Through New Global MSME Financing Platform.* Press release. – Washington, DC: IFC, May 28, 2024.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/actinfo/respondents/-6591947>